

**“BO‘TAKO‘Z” DOSTONIDA “QIRQ YIGIT” OBRAZI TAHLILI (USMON MAMATQUL VARIANTI ASOSIDA)**

*Ahmadova Go‘zal Azamat qizi*  
*Magistr*

**Annotatsiya.** Go‘ro‘g‘li turkum dostonlari turkiy va jahon xalqlari folklorshunosligi uchun ilmiy tadqiqot sifatida eng ko‘p tahlilga tortilgan turkumlardan biri bo‘lib, ushbu dostonlar tahlili orqali xalqning epik dunyoqarashi, qadriyatlar va tabiat qonunlarining dostonlarda aks etishi haqida ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin. V. Jirmunskiy va X. Zarifov ta‘kidlaganidek, “... epos mafkurasi an‘anaviy obrazlar va motivlarda namoyon bo‘ladi. Bizning vazifamiz esa ana shu obraz va motivlarni xalq dunyoqarashining aniq badiiy ifodasi sifatida qabul etishdir”<sup>1</sup>. Shu nuqtai nazardan turkumda aks etgan rang-barang obrazlar va syujet tizimini tadqiq qilish tarixiy davr, e‘tiqodiy qatlam va mafkuraviy asoslarni topishga dostonlarning tag zamirida yotgan ma‘no-mazmunni bayon qilishga ko‘maklashadi. Tahlilga tortilgan Usmon Mamatqul repertuaridagi “Bo‘tako‘z” dostoni “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlaridan biri bo‘lib, ushbu doston ham Avazxon, Hasanzon, qirq yigit va Bo‘tako‘zning boshdan kechirgan sarguzashtlari, qahramonliklari orqali “Go‘ro‘g‘li” turkumi voqealarini boyitadi. Dostonda aks etgan “qirq yigit” obrazi tahlili orqali yetakchi qahramonga yordam beruvchi ko‘makchi obraz, “Go‘ro‘g‘li” turkumi silsilasidagi bir qatlam vazifasi aniqlanadi.

**Kalit so‘zlar:** *Go‘ro‘g‘li, qirq yigit, ko‘makchi obraz, mardlik, sadoqat.*

“Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar obrazlar tizimi rang-barang va murakkabdir. Yetakchi obrazlar va ularning ko‘makchi obrazlari bir tizimga zanjirdek tizilgan bo‘lib, turkum dostonlaridagi yaxlit kompozitsiyani saqlab qoladi. Go‘ro‘g‘li, Hasanzon, Avazxon kabi yetakchi obrazlar doston birligini ta‘minlasa, Chilton-homiylar, Go‘ro‘g‘lining qirq yigiti, parilar va devlar kabi ko‘makchi obrazlar dostonlar davomida turli vazifalarni bajarib, yetakchi obrazning kamoloti va qiyin vazifalarni bajarishiga ko‘mak berishadi.

An‘anaviy raqamlar qadimgi mifologik dunyoqarash hukmron zamonda sirli kuchga ega deb topilgan. Xususan qirq raqami, chilla tutish, mo‘l-ko‘lchilik, baxt saodat raqami sifatida, kuch-qudrat sifatida folklor asarlarida aks etadi. Ertaklar va dostonlar so‘nggida qahramon murod-maqsadiga erishib, qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilishi, bola tug‘ilganda va oila qurilganda, marosimlar ado etilganda qirq kun chilla saqlanishi so‘zimizning isboti bo‘la oladi. Dostonlarda chilton va eranlarning

<sup>1</sup> Турдимов Ш. “Гўрўғли” дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 13.

qirqta bo‘lishi va aynan, Go‘ro‘g‘lining qirq yigiti, hamrohi borligi tasvirlari raqamlar bilan bog‘lanuvchi voqealardan hikoya qiladi. Va ushbu an‘anaviy raqam ostida amalga oshadigan voqea-hodisalarning ilohiy-magik kuchga ega ekanligidan dalolat beradi. Go‘ro‘g‘lining qirq yigitni qirq joydan olib kelishi va ularning har birining o‘ziga xos xususiyatga egaligi va lavozimlar berilishi ularning doston syujetidagi o‘rnini belgilab beradi.

Qirq yigit – bu oddiy odamlardan emas, balki qahramon, jasur, mard va vatanparvar o‘g‘lonlar jamoasi. Ular odatda bir maqsad atrofida birlashgan bo‘ladi: vatanni himoya qilish, adolatni tiklash, dushmanga qarshi kurashish. Har bir yigitning o‘ziga xos sifati bo‘ladi: biri ot minishda usta, biri qilichboz, biri maslahatchi, biri ayyor, biri elchi kabi. Ular bardavom do‘stlik, sadoqat, qahramonlik va hamjihatlik timsoli sifatida tasvirlanadi. Mana shunday tasvirlar aks etgan dostonlardan biri “Bo‘tako‘z” dostoni bo‘lib, ushbu doston an‘anaviy farzandsizlik motivi orqali boshlanadi. Va aynan farzandsizlik motivi ushbu dostonda Go‘ro‘g‘lining yengilmas, jangovar kuchga ega qirq yigitining tashkil topishiga sabab qilib ko‘rsatiladi:

*“Go‘ro‘g‘li Chambilda bek bo‘lib, Chambilning egasi bo‘ldi, o‘n ikki xotin oldi, bola ko‘rmadi. Oxir vaqt bola qadri o‘tib, har bir shahardan o‘g‘il olib kelib boqib, qirqta o‘g‘il boqib oldi. Bularni yigit qilib, yasov qilib olib yurardi”<sup>2</sup>.*

Dostonda qirq yigit ishtiroki turli ko‘rinishda aks etgan bo‘lib, asosan, Go‘ro‘g‘li bergan amrni bajarish, ushbu buyruq asosida esa mardligi va jasorati, sadoqati sinalishi orqali yuzaga chiqadi. Xususan, amr quli bo‘lgan qirq yigitga Go‘ro‘g‘li ovga chiqib, oti kinnalanib holdan toygan paytda Turkman eli boylaridan Oqchishboyning to‘yiga aytishga kelgan chopar pichog‘i bilan otni so‘yganida bu choparni qo‘lga olishni buyuradi:

*“Shunda Go‘ro‘g‘lining qahri kelib qirq yigitiga buyuradi:  
O‘ttizimdan yurtga bo‘ldim tojdor,  
G‘azabimga dushman bo‘lmas barobar.  
Boylavonglar bu zindani yigitlar  
Qaydan keldi pichoqli qo‘rs enag‘ar”<sup>3</sup>.*

Dostonda baxshining badihago‘yligi va variantning boshqa dostonlardan farqi shundaki, Go‘ro‘g‘lining asrandi farzandlari soni sakkizta deb ko‘rsatiladi:

*“Chambilga yetib kelib o‘rdaga tushdi. Bolalarini chorlab chaqirdi. Hasanxon, Avazxon, Chaqqon, Soqijon, sakkiz o‘g‘lini sarafroz qilib yasadi”<sup>4</sup>.*

Bundan ko‘rinib turibdiki, Go‘ro‘g‘li qirq yigitning barini o‘ziga o‘g‘il qilib saylagan va ular orasidan Avazxon va Hasanxonni ularning boshi, taxtining merosxo‘ri

<sup>2</sup> O‘zbek xalq ijodi(Ko‘p tomlik): Bo‘tako‘z. Aytuvchi: Usmon Mamatqul o‘g‘li. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1986. – B.169.

<sup>3</sup> O‘sha manba, – B 173.

<sup>4</sup> O‘sha manba, – B. 174.

deb atagan. Zotan, doston boshlanmasida ham Go‘ro‘g‘lining o‘n ikki xotin olgani, ulardan farzand bo‘lmagani va shu sababdan turli xalqdan qirq o‘g‘ilni boqib olgani, o‘g‘il qilgani baxshi tomonidan xabar berilgan edi.

Turkum dostonlarining an‘anasidan kelib chiqqan holda Hasanxon va Avazxon ushbu dostonning old planida ishtirok etgan bo‘lib, voqealar rivoji boshlanishi Hasanxonning Turkman elidagi Olchishboyning to‘yiga xizmatga borib, ko‘pkarida tuyani olib qaytishi bilan boshlansa, dostonning kulminatsiyasi Avazxonning Bo‘tako‘zni olib qochishi va shu sababdan nizolarning kelib chiqishida aks etadi.

Go‘ro‘g‘li yigitlarni Turkman eliga jo‘natar ekan, ularning Oqchishboyga chin dildan xizmat qilishini ta’kidlaydi:

*“To‘yga bormoq uchun qilding niyatni,  
Minding, qo‘zim bolam, Avaz G‘irotni,  
Sog‘-salomat borsangizlar bu to‘yga  
Beling bog‘lab, qulday qinglar xizmatni.  
Otang xondur, sizlar orqamda noyib,  
Fuqarolar qolmasin sizdan koyib,  
To‘yga borgandan so‘ng bollarim,  
Otdan tushmay turmangizlar gerdayib”<sup>5</sup>.*

Turkman elida boy hisoblangan Oqchishboy qirq o‘g‘lidan eng kenjasi Yusufga to‘y qilayotgan bo‘lib, dostonda uluq chopish marosimi mana shu to‘y evaziga kirib keladi. O‘zbek xalqining qadimiy urf-odatlaridan bo‘lgan uluq chopish, ko‘pkari marosimi asl yigitlarning kuchini sinash, mardligini sinash maydoni bo‘lib, aynan, dostonda uluqni olganga boy qizi Bo‘tako‘z tillarda doston bo‘lgan chiroyini ko‘rsatar edi.

Aslida Go‘ro‘g‘lining kelishini kutgan Oqchishboy uning farzandlarini uncha xushlamay kutib oladi-yu, ammo ko‘ngilsizlik chiqmasin deb har birini qurdirgan yetti o‘tovga joylashtiradi. Dostonning mana shu qismida baxshining badiiy so‘zni qo‘llashga bo‘lgan mahorati yuzaga chiqadi. U uluq chopishga oid xabarni Hasanxonning sezgirligi, aql-farosatini namoyon qilish orqali ko‘rsatib beradi:

*“Hasan boshini yerga qo‘yib erdi, irg‘ib o‘rnidan turdi. Darhol Soqini “Turg‘il”, – deb turg‘izdi. Soqi turib: – Nima bo‘ldi?, – dedi. Hasan aytdi: Darhol Sariq samanga(sarsaman) yakka to‘qim solib, junganlab olib egarlayman, deb yurmay, tezlik bilan dalaga chiq. Yer tagidan bejoy otning dovuri keladir. Mana shu manglay tarafga qarab nariroqqa bosib borgin. Bilmasman bu ot duburini. To‘yxona, maydonxona, yiroq-yaqinga to‘yga aytgani borg‘ichi bolalar shularning ot duburimi yo bo‘lmasa el bizdan zerikkan bo‘lsa, yurt ichida olasi bo‘lib, Go‘ro‘g‘li bolalari bilan yov yaroqsiz kelsa tuta berib, Go‘ro‘g‘lining shoxini sindirgaymiz, degan kishilar Gurjiston*

<sup>5</sup> O‘sha manba, – B. 175.

*qizilboshidan bir joyga lashkar keltirib qo‘yganmikan, shumi – ko‘p otning duburi keladi. Shuni oldiga borib ko‘zing bilan ko‘rib, nima ekanini bilib kelgin, – dedi*<sup>6</sup>.

Shu o‘rinda bir masalaga oydinlik kiritish kerak. Nega aynan olti ukasi ichidan Hasanxon Soqini tekshirib kelishga jo‘natadi? Buning javobini esa aynan o‘zining tilidan aytilgan ushbu misralardan bilib olishimiz mumkin. Ortdan kelayotgan ot duburini eshitgan Hasanxon kelayotgan kim ekanligini bilish maqsadida ko‘rish uchun Soqiga ortga boqib kelishini buyuradi:

*“Mardning fosh bo‘lmasin nomardga siri,  
Mendan, uka, ayozi ko‘zingning nuri,  
Bolqonning beliga boqib qaragin,  
Orqamizdan kelar otning duviri”*<sup>7</sup>.

Shuningdek, uning voqelikka munosabati, xatarni avvaldan his qila olish qobiliyati Hasanxonga aytgan javobidan yuzaga chiqadi:

*“Tagida mingan oti bo‘z tarlon,  
Men senga bildiray endi Soqijon,  
Uch yil hammaktab bo‘lib sinaganman,  
O‘zi polvon beboshdur, og‘zi yomon.  
Boshing kesib zomin bo‘lmas qoningga,  
Seni o‘ldirib jabr solmas joningga,  
Er yigitga isnod o‘limdan yomon,  
Og‘zi bebosh tantiraydi shaningga.  
Tantirasa, Hasan, obro‘ying ketar”*<sup>8</sup>.

Yuqorida ham ta’kidlaganimizdek, Go‘ro‘g‘li qirq yigitining har biri o‘ziga xos hunar va xislat egasi bo‘ladi. Aynan Soqijon ham sinchiligi, ko‘zi o‘tkirligi bilan boshqalardan farqlanib turadi. Dostondagi xabar olib kelish, tekshirib kelish vazifalari aynan unga ishonib topshiriladi.

Dostonda ishtiroki bilan asosiy qahramonlardan biri Avazxonga ko‘mak bergan obrazlardan biri Chaqqon obrazi bo‘lib, ushbu obraz Go‘ro‘g‘lining ishongan tayangan yigitlaridan biri, ayni paytda Avazxonni yaxshi ko‘radigan, unga doim yordam beradigan obrazlardan biridir. Avazxon Bo‘tako‘zni Turkman elidan olib qochgandan keyin qishloq ahli undan Go‘ro‘g‘liga shikoyat qilib, Avazxonni tiriklay berishini yoki turkman eli bilan jangga kirishni o‘rtaga qo‘yib shartlashadi. Noiloj holda qolgan Go‘ro‘g‘li ulardan to‘qqiz kun muddat so‘rab undan keyin olib ketishi mumkinligini aytadi. Dostonning mana shu voqeasi mobaynida esa Chaqqonning Avazga bo‘lgan sadoqati yuzaga chiqadi:

*“Sakkiz kun yo‘lingga boqdim yolvorib*

<sup>6</sup> O‘sha manba, – B. 181.

<sup>7</sup> O‘sha manba, – B. 189.

<sup>8</sup> O‘sha manba, – B. 190.

*Yuzing ko‘rib muhtoj bo‘ldim sarg‘ayib  
G‘aflatda yotgan bo‘lsang, bol Avaz  
Tur uyqungdan Avaz boshing ko‘tarib.  
G‘aflatdan ochgin, do‘stim ko‘zingni,  
Qo‘ling bog‘lab sarg‘aytmasin yuzingni,  
Turkman eldan tutmoqa kelsa jallod,  
Uxlab qolmay, ehtiyot qil o‘zingni’<sup>9</sup>.*

Ushbu misralar orqali Chaqqon bor tafsilotni Avazxonga yetqazadi va uning o‘limdan qutulib qolishiga sababchi bo‘ladi. Shuningdek uning do‘stlik sadoqati va mardligi Avazxonning ko‘ngli bo‘lmay farzandlari va oilasini kimga ishonib ketishni bilmay ko‘zi qiymay turgan chog‘ida men o‘zim oilangga g‘amxo‘rlik qilaman deb so‘z berishi orqali tasvirlanadi:

*“...O‘z joningni ehtiyot qil bol Avaz,  
Bollaringni men Chaqqonga ishongin.  
Har namozda duo qil umrin tilab,  
Men o‘lmasam qolmas ko‘chada yig‘lab,  
Kunda ahvol olay holini so‘rab,  
Tarbiya qilarman boshini silab’<sup>10</sup>.*

Chaqqon o‘z nomi bilan chaqqon, zukko, ildam harakat qiluvchi obraz sifatida dostonidan o‘rin olgan. Miroxo‘r Soqi bilan Avazni tong otar mahalgacha darvozadan chiqarib, ularni xavfdan qutqarishga musharraf bo‘ldi. Shuningdek, darvozbonga ham bu haqdagi xabarni hech kimga oshkor qilmasligini qattiq tayinlaydi.

Dostonida Soqi miroxo‘r obrazi ham borki, ushbu obraz Go‘ro‘g‘lining ustoz, qirq chiltanning biri, Go‘ro‘g‘lining sayisi Soqibulbul bo‘lib, dostonida Avazxonning mardligi, sarguzashtlari davomida o‘z homiyliqi, ko‘magi bilan ishtirok etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Bo‘tako‘z” dostonida yetakchi qahramon Hasan va Avaz bo‘lib, qolgan obrazlari shu ikki obrazning qahramonligi namoyon bo‘lishida ko‘maklashadi. Ushbu doston “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari ichida hajman katta bo‘lmagan sarguzasht dostonlaridan biri bo‘lib, baxshi dostonni barcha qiyinchiliklarga sabab bo‘luvchi qahramon – Bo‘tako‘z nomiga qo‘yadi. Qirq yigitning ishtiroki dostonida faol ko‘rinmasada, eng kerakli nuqtalarda yetakchi qahramonga madad berib, doston qurilishida ishtirok etadi. Hasan bilan bog‘liq voqealarda, harakatida ularning donolik va mardlik, oqillik kabi sifatleri ochib berilsa, Avazni himoya qilishda sadoqati ham baxshi tomonidan munosib tarzda kuylanadi.

Turkum dostonlar tarkibida qirq yigitning ba‘zilari alohida ajratilib ismlari bilan ko‘rsatiladi. Aksariyat dostonlarda esa ular jamlik holida qirq yigit deb sanab ketiladi. Lekin barcha holatda ham ularning mardligi, jasorati, aql-zakovati va sadoqati

<sup>9</sup> O‘sha manba, – B. 205.

<sup>10</sup> O‘sha manba, – B. 207.

janglardagi harakatlari, bosh qahramonga bergan ko‘maklarida namoyon bo‘ladi. “Bo‘tako‘z” dostonini ham ushbu turkum dostonlari ichidagi qirq yigit jasoratidan lavhalar aks etgan dostonlar sirasiga kiritishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek xalq ijodi(Ko‘p tomlik): Bo‘tako‘z. Aytuvchi: Usmon Mamatqul o‘g‘li. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1986. – 63 bet.
2. Муродов М. Эпос Городглы сокровищница души и чаяний народа. – Ташкент: Фан, 1990. – 252 с.
3. Турдимов Ш. “Гўрўғли” дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. – Тошкент: Фан, 2011. – 240 б.
4. Эшонқулов Ж. Фолклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – 168 б.

